
Aademik litsey o'qituvchilari Tojikiston davlat pedogogika institutida bo'lishdi

Avvalroq ma'lum qilganimizdek Samarqand davlat chet tillar instituti akdemik litseyi hamda Tojikiston davlat pedagogika instituti bilan imzolangan hamkorlik shartnomasi yuzasidan akademik litsey xorijiy tillar kafedrası mudiri va o'qituvchilari Tojikistonda bo'lib qaytishdi.

Jarayonda Institut rektori bilan uchrashuv o'tkazilib, unda kelgusida xorijiy til o'qituvchilari bilan o'zaro qo'shma seminar-treninglar o'tkazishlari belgilab olindi. Tashrif chog'ida akademik litsey o'qituvchisi Zuxra Baratova tomonidan "Warming up activities and groupworking" mavzusida seminar-trening o'tkazildi.



SamDCHTI akademik litseyi axborot xizmati